

**OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUTAXASSISLIK FANLARINI
O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH
HOLATI: AMALIY TADQIQOT, NATIJALAR VA TAVSIYALAR**

Doston Toir o'g'li Gulboyev,

O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi,

(dostongulboyev19966@mail.ru)

Annotatsiya. Maqolada elektron ta'lim resurslarini mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llashning zaruriyatini baholashga qaratilgan tadqiqot natijalari bayon qilingan. Anketa so'rovnoma shaklida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili oliy ta'lim muassasalarida multimediali elektron ta'lim resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishning dolzarbligini ko'rsatgan. Olingan natijalar, mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llash uchun samarador pedagogik usullarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim resursi, mutaxassislik fanlari, anketa-so'rovnoma, pedagogik texnologiya.

**THE STATUS OF THE USE OF MULTIMEDIA IN TEACHING
SPECIALIZED SUBJECTS IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS:
PRACTICAL RESEARCH, RESULTS AND RECOMMENDATIONS**

Doston Toir o'glu Gulboyev,

Researcher at the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,

(dostongulboyev19966@mail.ru)

Annotation. The article presents the results of a study aimed at assessing the need for the use of electronic educational resources in teaching specialized subjects. The analysis of the results of the study, conducted in the form of a questionnaire, showed the relevance of increasing the effectiveness of using multimedia electronic educational resources in higher education institutions. The

results obtained serve to develop effective pedagogical methods for their use in teaching specialized subjects.

Keywords: educational resource, specialized subjects, questionnaire, pedagogical technology.

СОСТОЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИА В ПРЕПОДАВАНИИ СПЕЦИАЛЬНЫХ ДИСЦИПЛИН В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, РЕЗУЛЬТАТЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ

Достон Тоирович Гулбоев,

Научный сотрудник Узбекско-Финского педагогического института,

(dostongulboyev19966@mail.ru)

Аннотация. В статье представлены результаты исследования, направленного на оценку необходимости использования электронных образовательных ресурсов при преподавании профильных предметов. Анализ результатов исследования, проведенного в форме анкетирования, показал актуальность повышения эффективности использования мультимедийных электронных образовательных ресурсов в высших учебных заведениях. Полученные результаты служат для разработки эффективных педагогических методов их использования при преподавании профильных предметов.

Ключевые слова: образовательный ресурс, профильные предметы, анкетирование, педагогическая технология.

Kirish. Keyingi yillarda zamonaviy ta'limni tashkil etishdagi muhim talablardan biri ortiqcha fiziologik, ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida talabalarda o'qitilayotgan fan mavzulari mazmunini chuqur o'zlashtirishini ta'minlaydigan metodikalarni ishlab chiqish va qo'llashdan iboratdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy ma'lumotlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum tushunchalar yuzasidan bilimni shakllantirish yangicha yondoshuvni talab etadi. Bir qator tadqiqotlarda, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda qo'llanilayotgan

yangicha yondoshuvlarning samarasi bevosita fan mazmunini yetkazishda qo'llanilayotgan vositalarning turlari va ularni qo'llash usullariga bog'liqligi qayd qilingan [1]. Bu borada, ta'lim mazmuni ancha murakkab bo'lgan mutaxassislik fanlarini o'qitishda axborotni talabaga yetkazish vositasi va usulini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning nufuzli OTM larida mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida fan mazmunini virtuallashtirish va ularni elektron resurs holda talabalarga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda [2]. Mutaxassislarning qayd etishicha, elektron resurslardan foydalanishning jozibadorligini uning quyidagi xususiyatlari bilan bevosita bog'liq:

mavhum tushunchalarni aniq ma'lumotga aylantirish;

sheklangan doirada, ya'ni kam vaqtda katta hajmdagi ma'lumotlarni taqdim etish;

talabalarining bilim olishga qiziqishini uyg'otish;

o'qituvchiga talabalarining bilimini baholash imkoniyatini taqdim etish [3].

Ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivatsiyasini) oshirishga ko'maklashish imkoniyatlariga ko'ra, shuningdek, har xil turdagi multimediali o'quv axborotlarining uyg'unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko'ra multimedia foydali va mahsuldor ta'lim texnologiyasi hisoblanadi [4].

Multimedia vositalari ta'lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo'lib, u o'qituvchiga an'anaviy ma'lumotlar manbaidan ko'ra keng ko'lamdagi ma'lumotlar massivini taqdim etish; ko'rgazmali va uyg'unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animatsiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta'lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi va mantiqiy o'rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi. Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to'liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta'lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o'qituvchining ko'magi zarur bo'ladi [5].

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur tadqiqotda elektron ta'lim resurslarini mutaxassislik fanlarini o'qitishda qo'llashning zaruriyatini baholashga qaratilgan tajribalar amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqotda O'zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, Navoiy davlat pedagogika universiteti, Jizzax davlat pedagogika universiteti va Andijon davlat pedagogika institutining jami 970 nafar talabasi ishtirok etdi.

Anketa-so'rovnoma onlayn shaklda
(<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLScbBk3-QtWI93tDp4jV4hmNUH6JEz1dWgAcwwrgGizBLoa4Ow/viewform>) quyidagi savollarga javob berish shaklida amalga oshirildi:


1. Ta'lim olish jarayonida elektron ta'lim resurslaridan foydalanasizmi? (bittasi tanlanadi)
 - ✓ Ha, muntazam foydalanaman.
 - ✓ Ha, qisman foydalanaman.
 - ✓ Umuman foydalanmayman.
2. Ta'lim olish jarayonida elektron ta'lim resurslarining qaysi turidan ko'p foydalanasiz? (bir nechtasini tanlash mumkin)
 - ✓ Matn
 - ✓ Rasm
 - ✓ Audio
 - ✓ Video
 - ✓ Animatsiya
3. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy dasturiy va multimediali vositalari qo'llaniladimi? (bittasi tanlanadi)
 - ✓ Ha, muntazam foydalaniladi.
 - ✓ Ha, qisman foydalaniladi.
 - ✓ Umuman foydalanilmaydi.

4. Mutaxassislik fanlarini o‘qitishda foydalanilayotgan dasturiy va multimediali vositalari tarkibi qanday komponentlardan iborat? (bir nechtasini tanlash mumkin)

- ✓ Matn
- ✓ Rasm
- ✓ Audio
- ✓ Video
- ✓ Animatsiya

Olingan natijalarga har bir javobga tegishli talabalar sonining jami ishtirokchi talabalarga nisbatan % ulushini aniqlash orqali statistik ishlov berildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalarining tahliliga ko‘ra, so‘rovnomada ishtirok etgan talabalarining 59,9% ta‘lim olish jarayonida elektron ta‘lim resurslaridan muntazam foydalanadi. 376 nafar talaba, ya‘ni ishtirokchilarning 38,8%i o‘quv maqsadida elektron ta‘lim resurslaridan qisman foydalanishlarini qayd etishgan. 1,3% talabalar elektron ta‘lim resurslaridan umuman foydalanmasliklarini bildirishgan (1-rasm).




Ta‘lim olish jarayonida elektron ta‘lim resurslaridan foydalanasizmi?

1-rasm. Talabalarining elektron ta‘lim resurslaridan foydalanish holati


Tadqiqot oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida elektron ta‘lim resurslarini matn holatda foydalanadigan talabalarining ulushi ko‘p bo‘lishini ko‘rsatdi. So‘rovnomada ishtirok etganlarning 80,1%i “Ta‘lim olish jarayonida elektron ta‘lim resurslarining qaysi turidan ko‘p foydalanasiz?” degan

savolga aynan matn holatda foydalanishini ta’kidlashgan. Shuningdek, ushbu savolga 52,8% talabalar rasm, 40,7% talabalar video, 14,4% talabalar audio va 12,9% talabalar animatsiyalardan foydalanishlarini bildirishgan. Ushbu natijalar o‘quv jarayonida zamonaviy multimedia vositalarini qo‘llash darajasi yuqori emasligini asoslaydi (2-rasm).



Ta'lim olish jarayonida elektron ta'lim resurslarining qaysi turidan ko'p foydalanasiz?

2-rasm. Talabalar tomonidan foydalanilayotgan elektron ta'lim resurslari turlari




Mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy dasturiy va multimediali vositalari qo'llaniladimi?

3-rasm. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish holati

Tadqiqot natijalariga ko'ra, so'rovnomada ishtirok etgan talabalarning 52,3%i mutaxassislik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan muntazam

foydalanadi, deb hisoblashgan. Ishtirokchilarning 45,6%i mutaxassislik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan qisman foydalanilayotganligini qayd etishgan. Bu borada, 2,2% talabalar mutlaq salbiy tavsifga ega javobni belgilashgan (3-rasm).

Tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida mutaxassislik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslarini matn holatda foydalanadi, deb hisoblayotgan talabalarning ulushi ko'p bo'lishini ko'rsatdi. So'rovnomada ishtirok etganlarning 76,2%i "Mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanilayotgan dasturiy va multimediali vositalari tarkibi qanday komponentlardan iborat?" degan savolga aynan matn holatda foydalanilayotganligini ta'kidlashgan. Shuningdek, ushbu savolga 69,8% talabalar rasm, 52,4% talabalar video, 22,9% talabalar audio va 19,9% talabalar animatsiyalardan foydalanilayotganligini bildirishgan. Ushbu natijalar mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy multimedia vositalarini qo'llash darajasi yuqori emasligini ko'rsatdi (4-rasm).



Mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanilayotgan dasturiy va multimediali vositalari tarkibi qanday komponentlardan iborat?

4-rasm. Mutaxassislik fanlarini o'qitishda foydalanilayotgan elektron ta'lim resurslari turlari

Xulosa. Tadqiqot natijalarining tahlili oliy ta'limda mutaxassislik fanlarini o'qitishda ta'lim vositasi sifatida animatsiya va video shakldagi elektron ta'lim resurslaridan foydalanishga ehtiyoj yuqoriligini ko'rsatdi. Shu bois, mutaxassislik

fanlaridan ta'lim mazmunini talabalarga yetkazishda multimediali tavsifga ega innovatsion ishlanmalar va taqdimotlar tayyorlash, ularni qo'llash va samaradorligini baholashga doir tadqiqotlarni olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Darling-Hammond, L., Flook, L., Cook-Harvey, C., Barron, B., & Osher, D. (2019). Implications for educational practice of the science of learning and development. *Applied Developmental Science*, 24(2), 97–140. <https://doi.org/10.1080/10888691.2018.1537791>
2. Alenezi, M. (2023). Digital Learning and Digital Institution in Higher Education. *Education Sciences*, 13(1), 88. <https://doi.org/10.3390/educsci13010088>
3. Almara'beh, H., Amer, E.F., Sulieman, A., 2015. The effectiveness of multimedia learning tools in education. *Int. J. Adv. Res. Comput. Sci. Software Eng.* 5 (12), 761–764.
4. Abid Haleem, Mohd Javaid, Mohd Asim Qadri, Rajiv Suman. 2022. Understanding the role of digital technologies in education: A review. *Sustainable Operations and Computers*: 275-285. <https://doi.org/10.1016/j.susoc.2022.05.004>
5. Abdulrahman M.D., N. Faruk, A.A. Oloyede, N.T. Surajudeen-Bakinde, L.A. Olawoyin, O.V. Mejabi, Y.O. Imam-Fulani, A.O. Fahm, A.L. Azeez. Multimedia tools in the teaching and learning processes: A systematic review, *Heliyon*, Volume 6, Issue 11, 2020, e05312, <https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2020.e05312>

